

Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд Давлат
Архитектура - Қурилиш Институти

“Қурилишни бошқариш” факультети
“Касбий таълим” кафедраси



**Диплом лойиҳасининг
ТУШУНТИРИШ ХАТИ**

Мавзу: Рангтасвирда Рухобод меъморий обидасини
тасвирлаш ва уни ўқитиш услуби.

Кафедра мудири: доц. Рахимов А.Қ.

Раҳбар: доц. Султонова Д.Н.

Маслаҳатчи: Ўқт. Меликулов А.Н.

Битирувчи: 401-КТ(с) гуруҳи
талабаси Раджабова Зухра.

Самарқанд 2013 йил.

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ
АРХИТЕКТУРА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ

«Қурилишни бошқариш» факультети
« Касбий таълим » кафедраси

ТУШУНТИРИШ ХАТИ

Диплом лойихасининг мавзуси

Тантасвирда Тухобод меъморий
обидасини тасвирлаш ва уни
ўқитиш услуби.

Диплом лойихасини

бажарувчи толиб (а)

Таднатова Зуҳро
(Ф.И.Ш.)

Кафедра муdiri

доц. Рахмонов А. Ғ.
(Ф.И.Ш.)

Раҳбар

доц. Султонова Д. Н.
(Ф.И.Ш.)

Маслаҳатчилар

ўқит. Менижиров Н. Н.
(Ф.И.Ш.)

(Ф.И.Ш.)

Рахмонов
(ИМЗО)

Султонова
(ИМЗО)

Менижиров
(ИМЗО)

Менижиров
(ИМЗО)

Менижиров
(ИМЗО)

Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд Давлат Архитектура
Қурилиш Институтини

«Қурилишни бошқариш» факултети

«Касбий таълим» кафедраси

ДИПЛОМ ЛОЙИХАСИНИ БАЖАРИШ УЧУН
ТОПШИРИҚ

Раҳжабова Зухро

401-КТ(с)

(талабанинг фамилияси, исми, шарифи)

I. Диплом лойиҳасининг мавзуси Рангтасвирда Рухобод
меъморий обидасини тасвирлаш ва уни ўқитиш
ушуби.

Институт буйича 2012йил «29» 12. 246 у – сон буйруқ асосида тасдиқланган.

II. Диплом лойиҳасини бажариш учун маълумотлар Рангтасвирда
меъморий макъара шимми бўйича келтирилган
маълумотлар тўғрисида.

III. Тушунтириш хатида келтириладиган:

1. Мавзу бўйича маълумотлар тўплаш, уларнинг таҳлили ва асослаш Тўланган
маълумотлар таъмин қилиниб, мавзу асосидаги
ва динион шимми ретаси турилади.

2. Диплом лойиҳасининг назарий шакли ишланмалари Рангтасвирда меъ-
морий макъара шимми асосидаги яратилган наъ-
риласида изохласи.

3. Диплом лойиҳасининг амалий шакли бўйича эскизлар бажариш Мавзуга
оид эскиз тайёрласи ва керакли ўлчамда шимми
берил.

4. Ўқув услубий қисми Мавзу бўйича дарс берил ретасини ту-
зиб, 2-соатлик дарслик меъморий шимми шимми шимми
лаб тили ва замонавий ўқитиш технологияларини қўи-
лаб дарс ўқити услубини яратил.

5. Диплом лойиҳаси бўйича хулоса қисми Диплом шимми бажариш
мараъида талабанинг диплом шимми бўйича шимми
хулосаси келтирилади.

6. Фойдаланилган адабиётлар рўйхати Диплом шимми бажариш
мараъида қўшилган адабиётлар ва меъморий
шимми шимми рўйхати келтирилади.

IV. Диплом лойихасининг таркиби ва график қисми:

1.

Рангтаъбирнинг меъморий манзара эскизида
бажаришган иш.

2.

Меъморий манзара ишлари.
кетма - кетилиш.

3.

«Зинаша - зина» методи қўллаб ўтилган
80 - минутлик дарс таъсироти.

4.

V. Диплом лойихасининг қисмлари бўйича маслаҳатчилар:

№	Диплом иши қисмлари	Бошланиши	Тугалланиши	Маслаҳатчилар	Изох
1.	Мавзу бўйича маълумотлар тўплаш, уларнинг таҳлили ва асослаш.	1.03.13	25.03.13	Султонова Д.	
2.	Диплом иши назарий шаклининг ишланмалари.	26.03.13	12.04.13	Султонова Д.	
3.	Диплом ишининг амалий шакли бўйича эскизлар бажариш.	13.04.13	10.05.13	Маммуладов А.	
4.	Ўқув услубий қисми.	11.05.13	15.06.13	Рахмонов А. Б.	

Изох:

1. Диплом лойихаси «Низом» га асосан бажарилади.
2. Хар бир топшириқда кўрсатилган муддат охирида раҳбар ёки маслаҳатчи
томонидан имзолангандан кейин навбатдаги қисмини бажаришга кафедра
томонидан рухсат берилди.

VI. Топшириқ берилган сана

1.03.13

VII. Тугалланган диплом лойихасини топшириш санаси

15.06.13

Диплом лойихаси раҳбари

доц. Султонова Д. Н.

(фамилияси, исми, шарифи)

(имзо)

Топшириқ бажариш учун қабул қилинди

Рахмонова З.

(фамилияси, исми, шарифи)

(имзо)

Кафедра мудири

доц. Рахмонов А. Б.

(фамилияси, исми, шарифи)

(имзо)

MUNDARIJA:

I. KIRISH.....	6-7
II. Mavzuni asoslash.....	8-10
III. Ruxobod memoriy obidasi.....	11-17
IV. Rangtasvir sanati.....	18-20
V. Ijodiy jarayon ketma-ketligi.....	21-26
VI. Atrof muhit muhofazasi qismi.....	27-31
VII. Oquv uslubiy qism.....	32-42
VIII. Xulosa.....	43-44
IX. Adabiyotlar.....	45-46

Kirish

Kirish

Samarqand shahrida Go'ri Amir maqbarasining shimol tomonida Ruxobod nomi bilan mashxur bo'lgan bir ajoyib obida qad ko'tarib turibdi.

Bu bino XIV asrning 80-yillarida vafot etgan shayx Burxoniddin Sog'arjiy maqbarasidir. U butun kompozitsiyasi bilan XI-XII asrning inshoatlariga o'xshab ketadi, ammo azimligi, xaybatliligi bilan Amir Temur davriga xos ulug'vor inshoatlar qatoriga kiradi.

Aholi mazkur avliyoga alohida ixlos va extirom bildirib, maqbara va u bilan bog'liq maskanni Ruxobod deb atagan. 19 asrda maqbaraga bog'lab madrasa, xozirgi vaqtda darvozaxona va bir necha xujra saqlangan masjid va minora qurilgan.

Sho'rolar davrida mazkur maskan diniy ziyoratgoh sifatida e'tibordan chetda qolgan, tashlandiq holga kelgan edi. Xujralar qisman buzib tashlangan, guzar masjidida korxona joylashgan. Amir Temur tavalludining 660 yilligi arafasida maqbara atrofida keng ko'lamli rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi.

Ruxobod maqbarasi qayta govjum ziyoratgohga aylandi.

Mavzuni asoslash

Mavzuni asoslash

Go'zal va xamisha navqiron shahrimiz Samarqand, o'zining betakror me'moriy obidalarini bilan dunyo ahlini xayratga solib kelmoqda. Bu inshoatlarning barchasi o'zining bezak naqshlari bilan bir-biridan qolishmaydi. Lekin o'zining azimlili, xayratlili va maxobati bilan bir maqbara ajralib turadi. U ham bo'lsa, Ruxobod maqbarasidir. Diplom ishini bajarishda, Samarqand shahrimizning me'moriy obidalaridan birini rangtasvirda bajarishni niyat qilib qo'ygan edim. Aynan Ruxobod maqbarasi o'zining sodda arxitekturasini, ravshanligini va tasirliligini bilan, meni o'ziga jalb qildi.

Shu sababli, rahbarim Sultonova D.N. bilan maslahatlashgan holda ana shu mavzuni tanlashga qaror qildim.

Mavzuning o'ta murakkabligini, o'z o'zidan ko'rinib turibdi. Murakkab bo'lishi bilan birga o'ta ma'suliyatli bo'lgan bu mavzuni bajarish oson bo'lmaydi albatta.

Lekin men bor bilim va ko'nikmalarimni ishga solib bu ishni bekami ko'st bajarishga harakat qilaman. Bu sayi harakatlar buyuk ajdodimiz alloma-avliyo Shayx Burxoniddin Sog'arjiy xazratlarining ruxi poklarini shod aylashga qaratilgan desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ajdodlarni xotirlash, ular ruhini shod etish, biz yoshlarning muqaddas vorislik burchimiz hisoblanadi.

Ruxobod me'moriy obidasi

Ruxobod me'moriy obidasi

Roxobod-majoziy nomi, aslida alloma avliyo shayx Burxoniddin Sog'arjiy(Sog'arj-Samarqand yaqinidagi qadimiy kent) maqbarasi. Amir Temur saltanatining dastlabki davrida (14 asrning 70-yillari) shahar Arki (ko'k saroy, bo'ston saroy, Nuriddin Basir maqbarasi) tomonidan janubdagi Toshqo'rg'on-chaqar (Kichik Oqsaroy, Muxammad Sulton me'moriy majmui, hozirgi Amir Temur maqbarasi) orasini bog'lovchi mashxur Shoxrux-Shox ko'chani ochish va tartibga solish davomida yuzaga chiqqan Sog'arjiy qabriga bog'lab, maxobatli baland maqbara tiklandi. Amir Temur maqbara ta'minoti uchun maxsus vaqfnoma (kuyib ketgan vaqfnoma qoldiqlari tarjimasi O'zbekiston davlat arxivida saqlanmoqda) chiqargan. Undan ma'lum bo'lishicha, maqbara va yonidagi bog' yirik daromad manbai bo'lgan. Maqbara sirtiga sirkor bezak deyarli berilmagan, unga hashamatli peshtoq ham qilinmagan. Fasadlari arzimas detallari bilan bir-biridan farq qiladi. Bir vaqtlari maqbaraning ichiga kirish uchun uchta eshik bo'lgan, janubiy fasaddagi ajoyib o'ymakor eshigi keyinchalik urib tashlangan, shu sababli uni maqbaraning ichidagini ko'rsa bo'ladi.

Ikkinchi eshigi shimoliy fasadda bo'lib, u ham urib tashlangan. G'arbiy fasaddagi uchunchi o'ymakor eshik esa, ancha yangi bo'lib, XIX asrda Samarqand hokimi Muzaffarxon zamonida qurilgan.

Maqbaraning ichki kengligi va kattaligi, bezaklarining sifoligi bilan xayratda qoldiradi. Poli g'isht bo'lib, bir necha sag'ana saqlanib qolgan, sag'analari ganch suvoq qilingan.


Bir vaqtlar bu sag'analarning qoplamasi sirti zarxal berilgan nafis sirkor parchin bo'lgan xozir ba'zi sag'analardagina parchin bo'laklari saqlanib qolgan. Binoning kvadrat qismi ancha baland bo'lib, devorlari ganchsuvoq qilingan, har birining o'rtasida ravoq nusxa taokcha bor. Devor izorasi binoning hajmi kattaligiga mos bo'lib, balandligi ikki metrcha. Izoraga sirli bezak berilmagan olti qirrali sopoldan qoplama qilingan. Chorafzalida lojuvard sir ancha tejab qo'llanilgan. Gumbaz oltita ravoqqa tayanib turadi. Maqbara ichiga darchalardan yorug'lik

tushadi. Baland darchalar tufayli yaxshi yoritilgan gumbaz binoyi va muazzam tuyuladi.


1907-yildagi zilzila obidaga katta zarar yetkazdi. O'shanda gumbaz qattiq shikastlangan va devorlari bir necha yerdan darz ketgan edi.

Olti yuz yil davomida asta-sekin hosil bo'lgan qatlam tufayli maqbara bir yarim metrcha qo'shilib ketgan. Hozir u qatlamdan tozalandi. Maqbaraning ichi va gumbazi restavratsiya qilindi, sakkizyoqli asosi mustahkamlandi. Maqbarani umumiy mustahkamlash ihsalari ham olib borilmoqda. XV sarda maqbaradan Go'ri Amirgacha tosh yo'l bo'lgan. Bu yil, ikkali yoqasidagi tarvaqaylab o'sgan daraxtlar tufayli, yozning jazirama issig'ida ham orombaxsh salqin bo'lgan, o'rta asr kitoblarida bu yo'l shoxrox degan nom bilan ma'lum. XIX asrda Muzaffarxon vaqtida maqbara oldiga bir kompleks imoratlar tushgan. Shu jumladan masjid bilan minora va darvozaxona qurilgan. Zamonaning zayli bilan imoratlar yo'q bo'lib ketgan maqbaradan janub tomonda sal narida darvazaxona bilan minora saqlanib qolgan. Ammo noma'lum me'morning ijodi-bunyodkor xalq san'atining ajoyib yodgorligi muazzam Ruxobod XIV asrdan buyon savlat to'kib turibdi.

Maqbara arxitekturasining sodda ravshanligi ta'sirliligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Meyori bilan berilgan bezak-naqshlar esa bu maxobatli obidani yanada ko'rkam qilgan. Maqbara binosi xozir shahar markazi tomonidan ko'zga tashlanadi, galdagi rekonstruksiya davomida maqbara atrofida keyingi davr binolari buzib tashlandi, natijada maqbara qaddi-qomatini yaqqol ko'rsatdi.



Рухобод мақбараси.
Жанубдан кўриниши.
Мавзолей Рухабод.
Вид с юга.



Рухсбод мақбараси. Жанубий фасад.
Муқарнасли равоқ.

Мавзолей Рухабод. Ниша южного фасада.



Рухобод мақбараси. Уймакор эшик. Фрагмент.

Мавзолей Рухабод. Резная дверь. Фрагмент.



Рухобод мақбараси. Уймакор эшик. Фрагмент.

Мавзолей Рухабод. Резная дверь. Фрагмент.

Rangtasvir vositasida Ruxobod me'moriy obidasini tasvirlash

Rangtasvir vositasida Ruxobod me'moriy obidasini tasvirlash

Avvalambot rangtasvir san'ati haqida ma'lumot berib o'tsak.

Rangtasvir san'ati-qadimda so'nggi poleolit ya'ni miloddan avvalgi 40-8-ming yilliklarad paydo bo'lgan. Rangtasvir asarlari asosan, Fransiyaning janubida, Ispaniyaning shimolida va O'rta Osiyo hududlarida saqlanib qolgan. Rangtasvir asarlari soz tuproqli bo'yoqlar, qorakuya, pista ko'mir bilan ishlangan. Rasmlar tekis sharpa sifat siyujet neolit davrida ishlangan ibtidoiy rangtasvir asarlari murakkab kopmozitsiyalari, obstrakt tushunchalar shakllangan. Quldorlik davrida rivojlangan texnik vositalar boy tizimi paydo bo'la boshlagan.

Rangtasvir-tasviriy san'at turi bo'lib, biror-bir qattiq yuzaga buyoqlar yordamida yaratiladigan badiiy asar hisoblanadi. Rangtasvir voqeylikni badiiy tasvirlash va talqin qilish, tomoshabin fikri hamda tuyg'ulariga ta'sir etishning muhim vositasidir. U muhim ijtimoiy mazmun va rang-barang g'oyaviy va vazifalarga ega. Rangtasvir asarining g'oyaviy mazmuni uning mavzu va sujetida mujassamlashadi. Asar sujetini rassom rangtasvirning ifoda vositalari orqali ro'yobga chiqaradi. Rangtasvirning ifoda vositalari kompozitsiya, rasm, rang va ritm. Rang tasvir asarlarining asosi-yog'och, qog'oz karton, maxsus ishlov berilgan mato, shisha va metal. Rangtasvirning rang qatlami guash, moybo'yoq, akvarel, tempera. Rangtasvirning muhim tasviriy va tasvir vositasi bu rang, rangtasvir asarini yaratishda rang orqali rassom borliq yoki xayoliy dunyoni hunarli shaxslarda tasvirlaydi. Rassom makonning cheksizligini, undagi narsalrning rangbarangligini, moddiyligini hajm va fakturasini ko'rsatishi, harakat inson ruxiyatidagi o'zgarishlar, xissiy kechinmalarni tasvirlashi mumkin. Rangtasvirning tasviriy ijoda vositasi va ishlash uslubi ishlatiladigan rang qurollar xususiyati rang eritgichlar, asosga bog'liq.

Rangtasvir-tasvir mavzu va mazmun yo'nalishiga qarab bir qator janrlarga bo'linadi: Animalistika, tarixiy janr, maishiy janr, batal janri, portret, manzara va natyurmort janrlari.

Rangtasvir asarlari ishlanishini shartli ikki-yassi va xajmli-fazoviy uslubga ajratish mumkin. Birinchi uslubda tasvir nur soyasiz yaxlit yassi usulda esa tasvir xajmli nursoya yordamida muhit bilan bog'liq holda tasvirlanadi.

Bunday asarlar rangga boy bo'lib, unda ranglarning barcha tuslanishlari xis etish tushuncha nurning qaytgan rangini ham, qaytgan nurlarning tuslanishi va boshqa ranglar bilan boyishini ko'rishi mumkin. Rangtasvir asarlarida bu ikki uslub orasida qat'iy chegara yo'q, biri ikkinchisini to'ldirib turadi. Rangtasvir asarlari o'zining ishlanish o'rni, mazmuni, bajaradigan vazifasi ishlanish, usulubi va ko'rinishiga qarab monumental, bezak dastgoh san'ati, dekoratsiya miniatyure va boshqalarga bo'linadi.

Yuqorida takidlab o'tganimdek rangtasvir mavzu va mazmun yo'nalishiga qarab bir qator janrlarga bo'linadi.


Mening holimda rangtasvirning manzara janrida foydalanishga to'g'ri keldi. To'g'rirog'I me'moriy manzara jarida desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki men tasvirlayotgan bino, me'moriy manzara hisoblanadi.


Shahar markazida joylashganligi sabab, binoni o'zini yaxlit holda tasvirlab bo'lmaydi. Shuning uchun bino shahar manzarasi fonida tasvirlandi.


Ijodiy jarayon haqida











Atrof muhit muxofazasi qismi

Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik xolat ko'pchilikni bizdek bezovta qilmoqda. Ekologik halokat ko'z o'ngimizda dahshatli tus olmoqda. Atrof muhitni muhofaza qilish va muvjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Hozirgi ekologik inqirozning sababchisi va o'z aql-zakovati bilan shu inqirozni bartaraf etuvchi-bu inson ekanligi ma'lum. Atrof-muhitni ifloslanishidan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab tergap foydalanish ko'p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlardan qat'iy nazar ularning ekologik savodxonlik darajasiga ekologik ma'daniyatiga bog'liq. Mustaqil Respublikamizdagi ekologik muammolarni hal qilish uchun aholining ekologik savodxonligini oshirish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari" fanini o'qitish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, hozirgi kunda umum ta'lim maktablarda, litsey, ixtisoslashtirilgan o'quv yurtlarida va oily o'quv yurtlarida ekologik fani o'qitilmoqda. Bu xol ta'limning har bir bosqichiga mos keladigan darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishni taqazo etadi. Ekologiya fani nihoyatda ko'p tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Masalani bioekologiya, gioekologiya, ijtimoiy ekologiya, inson ekologiyasi va hokazo. Hozirga qadar ekologiya bo'yicha yaratilgan darslik yoki o'quv qo'llanma shu sohaga moslab yozilgan.

Shuning uchun mavjud darslik va o'quv qo'llanmalari aynan shu soha bo'yicha ta'lim dargohi yoki shu soha bilan shug'ullanivchi mutaxassislar uchun ayni muddao.

Tabiat deyilganda biz o'zimizni o'rab turgan xavo, suv, tuproq tog' jinslari, o'simlik va xayvonotdan iborat murakkab moddiy borliqni ko'z ongimizga keltiramiz. U insonning barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi yagona manba hisoblanadi. Bu jihatdan uni onaga qiyoslab, bejis "Ona-tabiat" deb ardoqlamaydi. Hozir inson aql zakovati tufayli yerdan bir necha milliard yorubg'lik yiliga keladigan teng keladigan uzoqliklarni "ko'rayotgan" bo'lsa ham bizga ma'lum bo'lgan olamda birorta ham yer sayyorasining tabiatga o'xshash tabiat

va hayot shakli mavjudligi aniqlanmagan. Yer tabiatini yaqqolroq tasavvur qilish oson bo'lishi uchun quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz. Hozirgi ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, biz bilgan olam (koinot) bir-biridan bir necha yorug'lik yiliga teng masofalarda joylashgan bir necha gallaktikalardan tashkil topgan. Bu gallaktikalarni har biri necha necha milliard yulduzlardan va boshqa fazofiy unsurlardan iborat ulkan tuzulmalardir. Jumladan, bizning quyoshimiz joylashgan "somon yo'li" gallaktikasida 150 milliarddan ziyod turli o'lchamlardagi yulduzlar bo'lib, quyosh undagi o'rtacha kattalikdagi yulduzlardan biri hisoblanadi, xolos. Quyosh atrofidagi 9 ta sayyora va boshqa fazoviy jismlar birgalikda quyosh sistemasini tashkil etadi. Bu sistemaning diametri 12 milliard kilometrga teng bo'lib, umumiy massasining 98-99 foizi quyoshda jamlangan. Bizning yer esa mana shu sistemaning o'rtacha kattalikdagi bitta sayyorasidir.

Tabiatning inson va jamiyat uchun ahamiyati juda katta. Uni inson ehtiyojini qondirish jihatlariga qarab, iqtisodiy, ilmiy, sog'lomlashtirish, tarbiyaviy va estetik turlarga bo'linadi.

Iqtisodiy-ahamiyati deyilganda, undagi resusrlardan (havo, tuproq, minerallar, o'simlik va xayvonlar) turli ishlab chiqarish jarayonlarni tashkil etishda asosiy moddiy manba sifatida foydalanish tushuniladi.

Ilmiy-ahamiyati shu bilan belgilanadiki, unsonning barcha bilimlari negzida tabiat va undagi turli jarayonlarni kuzatish, o'rganish, tahlil etish va amalliy xulosalar qilish yotadi. Sog'lomlashtirish-ahamiyati deyilganda, sof tabiiy unsurlar musaffo havo, toza suv, unumdor tuproq bahavo o'rmon) ning va shifo beruvchi tabiiy modda va jarayonlarni inson salomatligiga ijobiy ta'siri tushuniladi.

Tabiatni estetik ahamiyati beqiyosdir. Insondagi barcha go'zallik, mukammallik, musiqa tesviriy san'at, hislari va ularga bo'lgan ehtiyojlarning negizida tabiat yotadi. Tabiatdagi yana yashil vodiylar, zilol suvli buloq va soylar, pirviqor tog'lar, bepoyon kengliklar, rang-barang gullar xushovoz va chiroyli qushlar inson uchun faqat moddiy

ne'matlar manbaiga emas, balki bitmas tugamas ijod, go'zallik, did va ruhiy quvvat manbai hamdir.

Ko'rinib turibdiki, inson ham jismoniy, ham ruxan atrof-muhit bilan uzviy bog'liq ekan. U tirik organism sifatida o'z mavjudligini ta'minlash uchun doimo tabiat bilan modda, energiya va axborot almashib turushga majburdir. Bu degan so'z, inson tabiatining tarkibiy qismi bo'lmagan mavjudodlari o'simlik va hayvonot ta'siriga nisbatan faol va harakateri jihatdan tubdan farq qiladi. Ya'ni inson ongi tufayli taibatni o'z ixtiyoj maqsadiga muvofiq tarzda o'zgartirish, moslashtirish imkoniyatiga ega. Tabiat bilan bo'ladigaan munosabatlarda insonga faollik va boshqa tirik mavjudodlar orasida yetakchilik qilish huquqini beruvchi omil inson ongi ijtimoiy muhitda, ya'ni jamiyatda shakllanadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, insonni ikkita yani tabiiy va ijtimoiy muhitlarning maxsuli bo'lgan bioijtimoiy mavjudod deb atash mumkin. Insonda ham moddiy (tana) va ruhiy (ong) mohiyat mujassamlashgan. U tirik mavjudot sifatida tabiat maxsuli, ongi tufayli esa ijtimoiy muhit (jamiyat) maxsuli hisoblanadi. O'zlarining biologic xususiyatlari, ijtimoiy mavqiyolari va boshqa shartlariga ko'ra turlicha ongga ega bo'lgan kishilar birgalikda kishilar jamiyatini tashkil etadilar. Bundan ko'rinib turibdiki inson tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi ko'priklar vazifasini o'taydi. Bundan keyin shunday xulosa ham kelib chiqadiki inson tabiatni uzviy tarkibiy qismi bo'lganligi uchun ular tashkil etgan jamiyat ham tabiatsiz mavjud bo'la olmaydi. Boshqacha qilib aytganda tabiat inson va jamiyat yaxlit bir tizim sifatida faoliyat ko'rsatadilar hamda ular mazkur tizimning tarkibiy qisimlari bo'lib hisoblanadilar. Mazkur o'rinda shuni ham esda tutish zarurki, tizimning komponentlaridan eng oliy rivojlangan shakli hisoblanadi. U bir qator o'ziga xos ichki ijtimoiy qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Mana shu qoqunuyatlarni tizimning boshqa component (tabiat va inson)lari rivojiga to'siq bo'lmasligi ekologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, har qanday tizimning barqarorligi komponentlarning o'zaro munosib ravishda rivojlanishi, ular orasidagi munosabatlar muvozanatlashgan holatda bo'lishini taqazo etadi, aks holda tizim buziladi, asl xususiyatlarini yo'qotadi.

Yuqoridagilardan quyidagi xulosaga kelish mumkin.

-Yer sayyorasi va undagi tabiat hamda hayot shakli insonga ma'lum bo'lgan olamda yagonadir.

-tabiat borliq inson va jamiyatning yagona moddiy negizidir.

-tabiat-inson va jamiyatni yaxlit tizim deb qarab, ularni birgalikda o'rganish zarur.

-bu tizimning biror-bir komponentidagi o'zgarish uning boshqa komponentalarida oadekvat tarzda ijobiy yoki salbiy o'zgarishlarni yuz berishga olib keladi. Tabiatdagi mana shu barqarorlik tabiiy yoki ekologik muvozanat deb ataladi.

O'quv uslubiy qism

MUNDARIJA:

- 1. Pedagog qanday bo'lishi kerak**
- 2. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari**
- 3. Dars reja matni**
- 4. Darsning turi va mazmuni**
- 5. Darsning borishi**
- 6. Darsning texnologik jarayoni. (“Rezyume” dars o'tish uslubi)**
- 7. Dars o'tish rejasi (80-minutlik dars taqsimoti)**
- 8. Yillik ish dasturi**
- 9. O'qituvchining ma'naviy va ma'rifiy ishlar rejasi**

Pedagog qanday bo'lishi kerak. Inson avvalo harakat qiladi va harakatining yengil bo'lishini keyinchalik shu harakatning bekorga aytilmasligini istaydi. Agar insonda mana shunday go'zal xususiyatlar yoki fazilatlar birlashsa, uyg'unlashsa, shundan so'ng u o'zida go'zallik fazilat va irodani boshqa kishilarda hosil qilish yo'lini o'rganish kerak.

Lekin buning uchun undan zo'r kuch va qudrat talab qilinadi deydi IX asr mohir pedagogi Abu Nasr Farobiy. Bunday faoliyat bo'lishi jamiyatning eng ishonchli kishisi avlodlarni avlodlar bilan bog'lovchi yetakchi kuch o'qituvchiga xos va mosdir.

To'g'ri ma'noda o'qituvchi so'zi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan. O'qituvchi so'zining ma'nosida bo'lish malaka va ko'nikmalarni tartib toptirayotgan, xahotga murabbiylik qiladigan va yo'llaydigan ya'ni pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadigan hamda kishilarni o'qituvchi deb ataydilar. Ma'lumki yosh avlodni maqsadga qaratilgan holda boshqarish va tartib topirish jarayoni bo'lmaganda jamiyat o'z rivojlanishida to'xtab qolar edi.

Pedagog kasbi boshqa kasblardan ko'pgina belgilari bilan farq qiladi. Pedagogning mehnat predmeti odam mehnatining maqsadi insonni qayta o'zgartirishi pedagogning mehnat quroli uning nutqi tafakkur irodasi, odobi mahorati va boshqa. Pedagogning ma'naviy, siyosiy kasbiy qiyofasiga qo'yiladigan yuksak talablar uni doimo takomillashishiga, to'xtovsiz o'z ustida ishlashga majbur etadi. Pedagog kasbi qiyin, qiyinchiliklari nimada? Eng avvalo tariya ta'lim ish natijalari darhol namayon boladi. Bu pedagoglar katta sabr-matnat, sabr-chidam, toqatni talab qiladi. O'z fanini mukammal bilishi uchun o'qituvchi to'la ijtimoiy hayot bilan yashayotgan, tabiatni kitobni san'atni va jismoniy chiqishni sevadigan bo'lsa, boshqalarni tarbiya qila oladi va ilmda mukammallikka erisha boradi. O'qituvchi umumiy ifodasiga yuzida bosiqlik o'zini tuta bilishlik, qattiq qo'llik, imo-ishorali, go'zal bo'lish kerak. O'qituvchi talaba yoshlar o'qituvchining nutqiga alohida ziyraklik bilan munosabatda bo'ladi. Qandaydir tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilishi ular oldida kulgi bo'lishga bir xil maromda asoslanmagan nutq ularni zeriktiradi. Baland ovozda dildan

bo'lmagan suhbat ular tomonidan sohta o'zlashtiriladi va o'quvchida ishonchsizlikni ifodalaydi. O'qituvchi nutqi tiniq, mazmunli, jarangli aniq, o'quvchilar diqqatini tortadigan fikrlashga davat etadigan va harakatga olib kelishi, ammo tartib uyquni keltirmaydigan pedagogik texnikani muvaffaqiyatidan dalolat beradi. Mahoratli o'qituvchilar o'quv faoliyatining meyyorini orttirib, uzliksiz davom ettirib, o'quvchilarda amaliy ko'nikmani shakllantiradi.

Zamonaviy o'qitish texnologiyasi. Kasbiy ta'lim dasturini ishlab chiqish hisobga olinishi lozim. Dasturning mazmuni didaktik prinsiplarga to'la to'kis javob berishi murakkablikning o'sib javob berishi murakkablikning o'sib borishi hisobga olingan holda va kasbiy ta'limning tanlangan didaktik muayyan izchillikda bayon qilinishi (KT-qurilish KT-san'at) misolida ko'rish mumkin.

Turmush bilan suveren va demokratik davlat tuzib, ozod va obod vatan qurish bilan bog'liq bo'lishi mehnat obyektlarning tafsia qilnadigan ro'yxati esa ijtimoiy ishlab chiqarish qimmatiga ega bo'lishi tabiiy ilmiy sikldagi umumiy ta'lim fanlari fizika, matematika, ximiya, chizmachilik, rasm, rangtasvir va hokazolar bilan bog'lanishini amalga oshirishi. Kursdan kursga o'tish vaqtida o'quv materiali kasb ta'lim dasturida joylashtirilgan.

Maxsus fan o'qituvchisi

Tasdiqlayman

Radjabova Zuhra

O'quv ishlar bo'yicha

4 soatga mo'ljallangan

director o'rinbosari

Dars reja matni

Guruh:220

Sana:12.04.13.

Darsning tartib soni: № 2 soatga mo'ljallangan.

Darsning mavzusi: Rangtasvirda manzara ishlash.

Darsning maqsadi: talabalarga manzara ishlashni tushuntirib ko'rsatish.

Ta'limiy: Ishlab chiqarish ta'limi jarayonda talablarning kasbiy malakalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy: Talablarni kasbiy malakalarni shakllantirishda uztoz shogird an'alariga amal qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Talabalarga individual usulda topshiriq berib, ularni ijodiy qobiliyatini o'stirish.

Darsning turi.

Dars qo'llaniladigan asosiy usullar.

Darsning jihozlari: Ushbu darsga taluqli bo'lgan asbob uskunalari, materiallar chizmalar va slaydlar.

Darsning mazmuni.

1. Tashkiliy qism: Talabalar bilan salomlashib, jurnaldagi ro'yxat bo'yicha yo'qlama qilib chiqish.
2. O'tilgan dars mavzusini so'rab, mustahkamlash va talabalar bilmini baholash.
 - a) Rangtasvir tarixini bilasizmi?
 - b) Rangtasvir so'zining ma'nosini aytib bering.

- c) Rangtasvir necha xil bo'ladi?
- d) Memoriy manzara qanday ishlanadi?
- 3. O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javoblar.
- 4. Yangi mavzuni boshi
- 5. O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javoblar.
- 6. Uyga vazifa.
- 7. Darsni yakunlash.

Darsning borishi.

Reja:

1. Memoriy manzara ishlash ketma-ketligida talabalarning kasbiy malakalarni shakllantirish.
2. Manzara ishlashda, grafik ishlarni bajarishda, ustoz-shogird an'analari, ustoz va shogirdning o'zaro mezonlar asosida ish yuritib boorish.
3. Yuqorida o'tilgan dars ketma-ketligi jarayonida talabalar tafakkuri va kasbga qiziqishni oshirib rivojlantirish orqali mavzuga oid plakatlar seryasini yaratish.
4. Eskizlardan foydalanib qog'ozga tushirish.

Ishlab chiqarish kasbiy ta'limi o'sishdan maqsad manbalar mustaqil holda ko'rsatma va tavsiyalarga tayanmasdan kasb-hunar kasbiy xatti harakatlar majmuasini shakllantirishdir. Talabalarga kasbiy ta'lim berish mazmuni deganda shunday bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi tushuniladi, ularni egallash orqali muayyan kasb va malakaga ega bo'lgan kichik mutaxasis tayyorlash ta'minlanadi. Ishlab chiqarish kasbiy ta'limning asosiy vazifasi-bo'lajak malakali kichik mutaxasislarni muayyan yo'nalish kichik mutaxasislarni muayyan yo'nalish asosida amaliy faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan ya'ni bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishga o'rgatishdan zarur bo'lgan kasbiy ko'nikma malakalarni shakllantirishdan iborat. Shunday qilib, ishlab chiqarishi kasbiy ta'limning asosiy mohiyati talabalarga tegishli ixtisoslik bo'yicha mehnat jarayonlarini bajarish yo'llari va usullarini o'rganishdan iboratdir. Prezidentimiz amalga oshirilayotgan islohotlar

xalqimiz faravon hayot kechirishini va faol ijodiy mehnat qilishi uchun murakkab shart-sharoit yaratishi mintaqamiz va butun dunyoda ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadni ko'zda tutadi. Bu muhim maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishda malakali mutaxassis kadrlar shakl shubhasiz hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Dars o'tishning texnologik jarayoni

Mavzu: "Ruxobod me'moriy obidasini rangtasvirda tasvirlash" va o'qitish

Zinama-zina texnologiyasi

O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilib, talablarni 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi

Talabalar mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilishi taritibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi.

O'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzu bilan tanishishlarini a shu mavzu asosida bilganlarini ruchka yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib, yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi.
--

Guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi.

Tarqatma materiallar to'ldirilgach, Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi.
--

O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materllarga izox berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Dars o'tish rejasi

(80-minutlik dars taqsimoti)

№	Dars bosqichi	Didaktik jihozlar	Mazmun va unga doir harakat	Metod (usul)	Vaqt (minut)
1	2	3	4	5	6
1	Tashkiliy qism	Guruh jurnali	Salomlashish, davomat tarbiyaviy suhbat	Savol-javob	5
2	Uz vazifani tekshirish va baholash	Doska, bajargan ish o'zlashtirish varag'i	a) Bajarilgan uy vazifalarini tekshirish. b) O'tilgan dars mavzusini mustahkamlash. c) Bilimlarni baholash	Nazorat taqdimot va munozara Joriy baholash	5 10 5
3	Motivatsiya	Xayotiy misollar	Qiziqarli o'yin (hikoya)	Suhbat	5
4	Yangi mavzu bayoni	Guruhlarga ajratish	O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilib, talablarni 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi	Zinama-zina	5
5	Mavzuni tushuntirish	Tarqatma material	Talabalar mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilishi taritibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi.	Tanishuv	15
6	Mavzuni mustahkamlash	Tarqatma material, qo'goz	O'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzu bilan tanishishlarini a shu mavzu asosida bilganlarini ruchka yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib, yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi.	Ma'ruza	5
7	Mavzuni mustahkamlash uchun mashqlar	Topshiriq kartochkasi	Guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak	Mustaqil ishlash	10
8	Nazorat baholash	Doska	Tarqatma materiallar to'ldirilgach, Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayorlangan material, albatta , auditoriya doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi.	Taqdimot	10
9	Yakuniy qism	Texnologik xarita	O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materllarga izox berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.	Baholash	5

Tuzuvchi fan o'qituvchisi:

Radjabova Zuhra

“Tasdiqlayman”

Kollej direktori

2012 - 2013 o'quv yiliga mo'ljallangan I-bosqich

Rangtasvir guruhi uchun o'qituvchi Radjabova Zuhraning
rangtasvir fanidan tuzgan yillik ish dasturi

T/r	Bo'lim va mavzularni nomi				Mashg'ulot tipi va turi	Ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar	Mustaqil ish turi. Amaliy laboratoriya tadqiqoti	Uy vazifasi	Adabiyotlar	Fanlar-aro bog'lanish	Izox
I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1	Mutaxassislikka kirish	№1	2.04.13	2	Og'zaki amaliy	Rangtasvirga oid plakat va slaydlar	Rangtasvir fanda oid maktabda olgan bilim ko'nikmalar	Rangtasvirda qo'llaniladigan asbob uskunalar	Xalq amaliy san'ati muzeyi	Umumiy fanlar	
2	Kirish. Rangtasvir asoslari	№2	14.04.13	2	Og'zaki	Rangtasvir asoslarini isbotlab beruvchi plakatlar					
3	Rangtasvir turlari	№3	20.04.13	2	Og'zaki	Rangtasvir turlariga oid rasmlar	Rangtasvir turlarini ish dasturiga yozib borish			Adabiyot tarix	
4	Rangtasvirda mazmun va shakl	№4	26.04.13	2	Og'zaki	Rangtasvirda mazmun va shaklga oid bayonnomalar va rasmlar		O'qib kelish	Ch.Axmarov	Tarix adabiyot	
5	Rangtasvir janrlari	№5	2.05.13	2	Og'zaki	Rangtasvir janrlariga oid rasmlar					
6	Rangtasvirda manzara janri	№6	8.05.13	2	Og'zaki	Mustaqil o'qish	Mustaqil o'qish	A.Usmonov			
7	Rangtasvirda manzara ishlash	№7	14.05.13	2	Og'zaki	Rangtasvir asboblari oid rasm va plakatlar		Rangtasvir asboblari b/n tanishish		Rasm	

8	Dars o'tish xonasida xavfsizlik texnikasi	№8	20.05.13	2	Og'zaki va amali	Xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsizligiga oid plakatlar	Plakatlarni o'rganish			Fizika ximiya	
9	Rangtasvirda ishlatiladigan asbob uskunalar mo'yqalamlarni saqlash qoidalar	№9	26.05.13	2	Og'zaki	Ma'lum usullardan foydalanish					
I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
10	Rangtasvirda ishlatiladigan moybo'yoq turlari	№10	1.05.13	2	Og'zaki	Moybo'yoq turlari tasvirlangan slaydlar	Eng sifatli moybo'yoqni tanlash	Sifatli moyqalam tanlash		Fizika ximiya	
11	Rangtasvir eskizlarini qog'ozga chizish	№11	7.06.13	4	Og'zaki	Illyustratsiyalar chizilgan plakatlar	Eskizlarga bo'yoq tanlash			Ximiya	
12	Rangtasvir san'ati haqida tushincha berish	№12	13.06.13	2	Og'zaki	Memoriy manzaralar tasvirlangan plakatlar				Kompozitsiya	
13	Rangtasvir san'ati haqida tushuncha berish	№13	19.06.13	4	Amaliy					Mate-matika	
14	Rangtasvirda manzara chizish	№14	25.06.13	4	Amaliy	Eskizlardan foydalanish	Manzara kompozitsiyalarini tushunturish			Chizma-chilik	
15	Taqdimot			50							

Tuzuvchi fan o'qituvchisi:

Radjabova Zuhra

Samarqand viloyati
Samarqand shahar Samarqand
hunarmandchilik kolleji
Rangtasvir №__ guruh
murabbiysi

“Tasdiqlayman” Kollej
ma’naviyati va ma’rifat
ishlari bo’yicha director
o’rinbosari

Radjaboda Zuhraning 2012-2013 o’quv yilida
bajariladigan ma’naviy va ma’rifiy ishlar rejasi

№	Bajariladigan tadbirlar	Bajarish muddati	Izod
1	Avgust	25.08.12	Murabbiy
	Dars sinfxonasini davlat ramslari: Prezident portreti, davlat gerbi, davlat bayrog’I davlat tilini va president asarlari bilan jihozlash		
2	Sentyabr	1.09.12	Ma’naviyat va ma’rifat bo’yicha director o’rinbosari
	1-sentabr O’zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuniga bag’shlangan tadbirda qatnashish		
3	Sentyabr	2.09.12	Direktor o’rinbosari
	Bilim yurtidan kelgan talabalarni, bilim yurtining ichki qonun-qoidalarini bilan tanishtirish		
4	Oktyabr	Doimiy	Murabbiy
	Rangtasvirda ma’moriy manzara janri haqida suhbat		
5	Guruh davomati va o’qish jarayonini tekshirib borish		
6	Oktyabr	Doimiy	Tarix o’qituvchisi
	O’zbekiston Respublikasining Davlat ramziy belgilari haqida talabalarga to’liq ma’lumot berish		
7	Dekabr	7.11.12	Murabbiy. Tarix o’qituvchisi
	8-dekabr O’zbekiston Respublikasining “Konstitutsiyasi kuni” mavzusida talabalarga ma’ruza o’qish		
8	Yanvar	25.01.13	Murabbiy
	I-yarim yillik yakuni guruhning umumiy va maxsus fanlardan to’plangan joriy oraliq va yakuniy nazorat rayting ballarini ko’rib chiqib, talabalar bilan birgalikda tahlil qilishi.		

Tuzuvchi fan o’qituvchisi:

Radjabova Zuhra

XULOSA

Xulosa

Avvalambor Diplom ishimga nima uchun aynan shu mavzuni tanlaganligim sabablarini aytib o'tsam.

Birinchi navbatda Vatan oldidagi farzandlik burchi bo'lsa, so'ngra bu muqaddas tuproq yashab o'tgan buyuk avloyilarning ruhlarini shod aylash, bilan birga Samarqand shahridagi "Ruxobod" me'moriy obidasini keng targ'ib qilishdan iboratdir.

Ana shu omillar sabab, rahbarim bilan maslahatlashgan holda Diplom ishimga aynan shu mavzuni tanladim. Bu ishni rangtisvirda bajarishimda, to'rt yil davomida uztozlardan olgan bilim va ko'nikmalarimdan unumli foydalanishga harakat qildim.

Albatta diplom ishimga baxo berish, xurmatli D.A.K raisi va komissiya a'zolari sizlarni xukmingizga xavola. Men esa fursatdan foydalanib to'rt yil davomida tahsil olishimda yordam bergan ustozlarimga, ota-onamga raxmat aytib qolaman. Ular bo'lmaganda men "Kasbiy ta'lim" yonalishining bitiruvchi talabasi bo'lmas edim.

Adabiyotlar

Adabiyotlar

1. O'zbekiston yangi tarixi uchinchi kitob. "Mustaqil O'zbekiston tarixi" Toshkent 2000 yil "sharq" nashriyoti.
2. Yu.Z. Shvab "Ruxobod maqbarasi" Toshkent 1970-yil. "O'zbekiston" nashriyoti.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", "O'qituvchi" Toshkent 1997-yil.
5. "Pedagogika" o'qituvchi nashriyoti Toshkent 1997-yil.
6. N. Oydinov "Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari" Toshkent 1997-yil "o'qituvchi" nashriyoti.
7. X.T. Avliyoqulov "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari" Toshkent 2001-yil.
8. Q. Smernov, A. Solovyov "Boshlovchi rassomlarga" Leningrad 1967-yil.
9. S. Abdurasulov, N. Tolipov, N. Oripova Rangtasvir Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti 2006-yil.
10. WWW. Ziyonet.uz/.../Ruxobod/.../mail@ru
11. WWW. Rangtasvir.Ruxobod/.../mail@uz